




ZANJIRLI UZATMANING ASOSIY PARAMETRLARI



Zanjirli uzatma yetaklovchi va yetaklanuvchi yulduzchalar va ularga kiydirilgan zanjirdan iborat bo'lib, u tasmali uzatmaga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

1. Nisbatan kattaroq quvvatni uzatadi.

2. Valga tushadigan kuch katta bo'lmaydi, chunki zanjirni tasma kabi taranglik bilan tortish shart emas.

Zanjirli uzatma quyidagi kamchiliklarga ega:

1. Uzatmaning detallarini tayyorlash murakkab va tannarxi baland.

2. Zanjir sharnirining yeyilishi natijasida zanjir uzunligi ortib ketadi.

Natijada katta dinamik kuchlar xosil bo'ladi.

3. Uzatmani yuqori darajada aniqlik bilan yig'ish va uzatmaning ishi davomida texnik xizmat ko'rsatish kerak.

Zanjirli uzatmaning geometriyasi bilan tanishamiz.

Uzatmani loyixalashda avvalo zanjirning qadami t va yulduzchalar tishlarining soni z_1 va z_2 lar qabul qilinib, keyin qolgan o'lchamlari aniqlanadi. Yulduzcha boshlangich aylanasi diametrini topamiz.

Uchburchak AOB dan:

Bularni hisobga olsak:

$$AO_2 = \frac{AB}{\sin \frac{\alpha}{2}} = \frac{t}{2 \cdot \sin \frac{180^\circ}{z_2}} \quad D_{o_2} = 2 \cdot AO_2 = \frac{t}{\sin \frac{180^\circ}{z_2}}$$

Demak:

$$D_{o_1} = \frac{t}{\sin \frac{180^\circ}{z_1}} \quad D_{o_2} = \frac{t}{\sin \frac{180^\circ}{z_2}}$$

- yetakchi va yetaklanuvchi yulduzcha boshlangich aylanasi diametrlari.
Markazlararo masofa quyidagicha qabul qilinadi:

=

▣ ZANJIRNI ZVENOLAR SONI

$$L=2*a + 0.5*Z + \frac{1}{a}$$

Zanjirli uzatmaning asosiy parametrlarini tanlashni ko'rib chiqamiz.

1. Zanjir qadamini tanlash.

Zanjir qadami va tezligi qancha katta bo'lsa, unda shunchalik katta dinamik kuch xosil bo'ladi. Shuning uchun t ni kichikroq olishga xarakat qilinadi. Lekin t kichik bo'lganda zanjir og'ir bo'ladi.

yuqorida keltirilgan sabablarga ko'ra zanjir qadami kichik yulduzcha uchun ruxsat etilgan aylanishlar soniga qarab jadvaldan qabul qilinadi.

2. Yulduzcha tishlar sonini qabul qilish.

Uzatmani loyixalashda yetakchi yulduzchaning tishlar sonini kichik olishga xarakat qilinadi. Lekin yuqorida aytganimizdek yetakchi yulduzchaning tishlar sonini kichik bo'lganda zanjir tezligi yuqori bo'ladi. Bu esa yana ortiqcha dinamik kuchlarni keltirib chikaradi. Shu sabablarga ko'ra, yetaklovchi yulduzchaning tishlari sonini tajriba yo'li bilan aniqlangan ma'ium tavsiyalar asosida qabul qilinadi.

Yetaklanuvchi yulduzchaning o'lchamlari juda katta bo'lmasligi uchun uning tishlari soni qiymati chegaralanadi.

3. Zanjirni sharnirlardagi solishtirma bosim bo'yicha tekshirish.

2

▣ MARKAZLAR ARO MASOFA

▣ $A=(30.....50) \text{ t} \quad \text{mm}$

Zanjirli uzatmaning uzatish soni

$$\square U = W_1 / W_2 = D_2 / D_1 = Z_2 / Z_1$$

SHarnirdagi solishtirma bosim

$$\square \quad P = K * F_t / S < [p]$$